

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

D.B.Saburov – o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: tanqidiy fikrlash, o'quvchilar, ertaklar, xalq og'zaki ijodi, muommolar yechimi, metodlar, baholash, yaxshilik, yamonlik, ayvoriylik.

Ключевые слова: критическое мышление, учащиеся, сказки, фольклор, решение задач, методы, оценка, хорошо, плохо, хитро.

Key words: critical thinking, students, fairy tales, folklore, problem solving, methods, evaluation, good, bad, cunning.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko'rgazmasida: "XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan "4K" ko'nikmasi bo'yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko'nikmalar, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish" masalalariga alohida e'tibor qaratish kerakligi [1] va "...darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganishi" zarurligini ta'kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o'qituvchilar majburiyatlari haqida "...bugun darsliklar o'zgarayapti. Shunga yarasha o'qituvchilar ham o'zgarishi kerak" [2], - degan fikrlari boshlang'ich sinf o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy-metodik va ilmiy-metodik ta'minotini mustahkamlash, ularni o'qitishda didaktik imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy qilishni yanada kuchaytiradi. Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kun uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalalar mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.


Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. "Tanqidiy fikrlash" tushunchasi XX asr o'rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo'lib tanqidiy fikrlash atamasi K.Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko'ra har bir tirik organizm muammolarni "hal qiluvchi" vazifasini bajargan. Atrofdagi ma'lumotlar dunyo tirik organizmning ma'nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi bu hodisani oldindan beradi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash – haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi.

Tanqidiy fikrlash masalasi bo'yicha ish olib borgan xorijiy va MDH davlatlaridan V.S.Bibler, B.Burshteyn, A.V.Brushlinskiy, M.Vertgeymer, D.V.Vil'keev, Dj.Gilford, N.G.Dayri, A.Z.Zak, G.I.Ibragimov, A.A.Ivin, Z.I.Kalmikova, F.Klike, I.Ya.Lerner, A.N.Luk, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov, S.O.Rubinsheyn, B.M.Teplov, O.K.Tixomirov, I.Frolov, V.S.Shubinskiy E.D.Bono, J.Daniya, M.Lipman, D.Halpern, D.Klouzlar tadqiq etgan.

A.E.Petrovlarning so'zlariga ko'ra, tanqidiy fikrlash refleksiv xususiyatga ega bo'lib, bunda inson o'z tafakkurini va uning to'g'riligini o'rganadi. A.Veretennikova tanqidiy fikrlashni belgilashda, uni baholashni shakllantirishga qaratilgan ruhiy holatlar, xususiyatlar va jarayonlar tizimi sifatida taqdim qiladi [3]. Rivojlanuvchi ta'lim konsyepsiyasiga tayangan holda A.V.Korjuyev, V.A.Popkovlar ta'lim berishni faqat ma'lumot olishga tenglashtirish mumkin emas, degan fikrni bildiradi.

Tahlil va natijalar. Tanqidiy fikrlash bu – o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini-o'zi tarbiyalaydigan, o'zini-o'zi nazorat qiladigan va o'zini-o'zi to'g'rilaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi. Egocentrizm negizida insonning o'z nuqtayi nazariga qarama-qarshi qarashlar mavjud bo'lishi mumkinligini tan olmasligi, tushuna bilmasligi hodisasi yotadi. Shaxsda o'ziga haddan ziyod ishonch ustuvorligi tufayli u boshqalarning ruhiy holatlari, baholash tizimini o'ziniki bilan aynan bir xil deb tasavvur qiladi [4]. Bu muammolarni hal qilish uchun ta'lim metodikasini takomillashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va xalq og'zaki ijodini o'quv dasturiga samarali kiritish zarur bo'ladi.

Agar ma'lumot tanqidiy fikrlash mezonlarga mos bo'lmasa, u o'z tarbiyaviy ma'nosini yo'qotadi. Ular quyidagi mezonlarda amalga oshiriladi. (1-rasm)



Amerikalik olim J.Dyuining fikricha: «O'quvchilar muayyan muommo bilan shug'ullana boshlasalar gina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. Shu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muommoni vujudga keltirishni anglatadigan savoldir. Faqat gina muayyan muommo bilan kurashib, o'quvchi haqiqatdan ham fikrlaydi» [5]. Demak, tanqidiy fikrlash asosida o'quvchilarda baholash, bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantiriladi. Demak, biz maqolamizning asosiy maqsadida quyidagilarga e'tiborimizni qaratdik: a) boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik mazmunini ochib berish; b) O'quv jarayonida xalq og'zaki ijodi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash darajasini baholash mezonlarini aniqlash va ularning pedagogik usullarini rivojlantirish. Bu jarayonda biz boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «O'qish kitobi»da 52-55 sarlavhalarida [7-55, 58] G'aniy Johongirovgning «Ko'k arg'umoq» ertagini olib misol qilaylik. Ertakda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha o'quvchilarga quyidagi savollarni berish imkoniyati mavjud.



Masalan: *Hikoyada «ko'k arg'umoq», «Tulpor» deb eshak ta'riflanadimi yoki otni? Odamlar muallimning ustidan nima uchun kulishdi? Muallim jon otni qanday qilib tulpor qilib oldi? Kabi savollar beriladi.*

Demak, biz o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini quyidagi usullarda ko'rib chiqish mumkin. (2-rasm)



Savol berish – Ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish uchun “Nega?”, “Qanday?” kabi savollar berish.

Dalillarga tayanish – xulosalar subyektiv emas, faktlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Mantiqiy tahlil mavjudligi – fikrlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish, xatoliklarni aniqlash.

Stereotiplardan qochish – oldindan shakllangan noto'g'ri tushunchalardan voz kechish.

Ochiq fikrlilik – yangi ma'lumot va qarashlarga tayyor bo'lish.

Muammoni tahlil qilish – Uning sabablarini va oqibatlarini o'rganish. **Ijobiy va salbiy tomonlarni baholash** – fikr yoki qarorning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli juda muhimdir. Biroq bu jarayonda bir nechta muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1. Xalq og'zaki ijodining o'quv dasturiga qanday integratsiya qilinishi va uning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini aniq belgilash muhimdir. O'quvchilarga qanday materiallar taqdim etilishi, ularni qanday tanqidiy yondashuv bilan ishlashlari kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar mavjud bo'lishi zarur.

2. O'qituvchilarning xalq og'zaki ijodini tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ishlatish uchun kerakli bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak. Ba'zi o'qituvchilar ushbu materiallardan qanday foydalanishni bilmasliklari mumkin, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Har bir bolada tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish qobiliyati va qiziqishi har xil bo'lishi mumkin. O'quvchilarning turli yosh guruhlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

4. Xalq og'zaki ijodining zamonaviy pedagogik maqsadlarga mos ravishda tayyorlangan materiallari yetishmasligi mumkin. O'quvchilarga qanday tarzda va qaysi darajada fikr yuritishni o'rgatadigan, ular uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan materiallarni yaratish zarur.

5. Xalq og'zaki ijodining madaniy kontekstini to'g'ri tushunmaslik va bu bilan bog'liq axloqiy qadriyatlarni hisobga olmaslik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodini ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini kuchaytirish, madaniy merosni saqlash va ularni axloqiy qadriyatlarga tayyorlashda samarali usul bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot ishimiz jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv vazifalari tizimini qurishda quyidagi xulosa va takliflarga keldik:

a) fikrlash madaniyati va tanqidiy fikrlash madaniyatini ong'li ravishda rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni ko'paytirish;

b) o'quvchilarga dars jarayonida qarama-qarshiliklar, xatolar va kamchiliklarni bilish va ochib berishga yordam berish;

c) konstruktiv tanqidni to'g'ri qabul qilishga va unga ishbilarmonlik bilan javob berishga o'rgatish;

d) faol hayotiy pozitsiyani rivojlantirish zarur;

e) o'quv materialining mazmuniga, dars jihozlariga, o'qitishning individual xususiyatlariga, o'quvchilarning bilim darajasi va o'qituvchining tayyorgarlik darajasiga qarab qo'llanish kerak;

f) o'quvchilarning tanqidiy fikrlash fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlash zarurdir.

Adabiyotlar

1. kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-onikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida
2. uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-o'qituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060.
3. Загашев И.О., Заир-Бек С.И. Критическое мышление: технология развития: пособие для учителя. – СПб: Альянс «Дельта», 2003.
4. "Piagets Stages of Cognitive Development". 9-may 2019-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 3-aprel 2018-yil.
5. Дьюди ДЖ. Индивидуализация обучение школьников. – Чикаго: 1991. –С-19.
6. Авлоний А. 4-синфлар uchun darslik "Yaxshilik erda qolmas" 123-b
7. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfi uchun darslik. –Toshkent: «Yangiyul polograph servis». 2020, 55-58-b

REZYUME. Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mavzusi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyatini o'rganadi.

РЕЗЮМЕ. Тема формирования навыков критического мышления младших школьников средствами устного народного творчества исследует значение устного народного творчества в развитии мыслительных способностей учащихся.

SUMMARY. The topic of the formation of critical thinking skills of younger schoolchildren by means of oral folk art explores the importance of oral folk art in the development of students' thinking abilities.